

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,**  
**2022.**

<b>K.Kodirov</b>	
O'zbekiston Respublikasida mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish .....	118
<b>B.Jumayev</b>	
Gastronomik turizm tushunchasining paydo bo'lishi va uning tarixiy asoslari.....	122
<b>U.Usarov</b>	
Rossiya imperiyasi rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining Turkistondagi yer-suv munosabatlariga doir faoliyatiga oid ba'zi mulohazalar.....	129
<b>SH.Tosheva</b>	
VIII – XII asrlarda O'rta Osiyo shaharlarida kasbiy o'zlikning o'ziga xos xususiyatlari .....	133
	ADABIYOTSHUNOSLIK
<b>A.Sabirdinov</b>	
Tuganmas ilhom manbai .....	138
<b>Q.Yo'Ichiyev</b>	
Lirik janr haqida ba'zi mulohazalar .....	142
<b>G.Mashrapova</b>	
Safar semantikasi va genezisiga doir ayrim mulohazalar .....	148
<b>SH.Jumanova</b>	
Usmon Azim she'riyatida kuz motivi .....	151
<b>E.Shevchenko</b>	
O'zbek adabiyot sharhi: boshlanish davridan hozirgi kungacha .....	155
<b>G.Nazarova</b>	
Ingiliz hamda o'zbek adabiyotida mifologik obrazlarning mifologizatsiyasi va ularning o'ziga xosligi.....	161
<b>D.Xusenova</b>	
Lev Tolstoyning hayoti va ijodiy faoliyatida sharqning o'rni.....	165
	TILSHUNOSLIK
<b>X.Maxsudova, SH.Shahobiddinova</b>	
Эргонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари .....	169
<b>N.Achilova</b>	
Nemis va o'zbek tillarida faunaga oid frazeologizmlar tasviri.....	173
<b>Sh.Sultonova, O.Usmonov</b>	
Diniy frazeologizmlarning ichki shakli dinamik hodisa sifatida .....	178
<b>Z.Akbarova, G.Sodiqova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning psixofiziologik va psixolingvistik asoslari .....	182
<b>I.Saydamatov</b>	
Ingiliz va o'zbek tillarida frazeologik tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	186
<b>Sh.Amonturdieva</b>	
Diniy uslubni yuzaga keltiruvchi ekstralingvistik omillar .....	191
<b>M.Batirxanova</b>	
Somatik frazeologizmlarning tarjima masalalarida pragmatik funksiyalarining tadqiqi .....	195
<b>N.Djalilova</b>	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida talabalarni chet til o'qitish kommunikativ kompetensiyasi .....	199
<b>A.Zinatullina</b>	
O'zbek va fransuz tillarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar .....	203
	MATEMATIKA
<b>A.O'rinov, M.Azizov</b>	
Yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun to'g'ri to'rtburchakda boshlang'ich-chegaraviy masala .....	207
<b>K.Xalilov</b>	
Singulyar koeffitsiyentli parabolo-giperbolik tenglama uchun integral shart va Bitsadze-Samarskiy sharti qatnashgan masalalar.....	225
<b>T.Xasanov</b>	
Davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida manbali yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasiga qo'yilgan koshi masalasi.....	232

## NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FAUNAGA OID FRAZEOLOGIZMLAR TASVIRI

## ЗООМОРФНЫЕ ОБРАЗЫ В НЕМЕЦКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ

## ZOOMORPHIC PICTURES OF GERMAN AND UZBEK PHRASEOLOGY

Achilova Nilufar Mansurovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Achilova Nilufar Mansurovna

– Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, o'qituvchi.

## Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis va o'zbek tillaridagi jonzotlar nomlari bilan bog'liq frazeologizmlarning tasviri tahlil qilingan. Hayvon nomlariga oid frazeologik birliklarning lingvokulturologik kontekstda ko'rib chiqish ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Nemis va o'zbek tillarining iboralarini o'rganish jarayonida hayvonlar nomi bilan bog'liq frazeologik birliklarning keng tarqalganligi mutlaq haqiqat ekanligini ko'rsatdi. Bunday ibora birlikmalarining ko'pligi, ularning obrazli tavsifi va faoliyat ko'rsatishning antropotsentrik xususiyati tilshunoslar va leksikograflarning frazeologik fondining ushbu qismga qiziqishini belgilaydi. Ikkala tilning frazeologiyasida turli hayvonlarning tasvirlari, hasharotlar va qushlar bilan bog'liq holatlar ko'p kuzatiladi. Tahlil jarayonida shu xulosaga kelish mumkinki, nemis va o'zbek tillarida zoomorf obrazli frazeologik birliklarni o'rganish ularning har ikki til umumiy frazeologik tizimi doirasida mikrotizim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Nemis va o'zbek frazeologik birliklarining nomlari bilan qarama-qarshi tahlili ibora birlikmalari asosidagi tasvirlardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga imkon berdi.

## Аннотация

В данной статье анализируется описание фразеологизмов, связанных с названиями существ в немецком и узбекском языках. Рассмотрение фразеологизмов названий животных в лингвокультурологическом контексте позволяет проанализировать особенности их функционирования. В процессе изучения выражений немецкого и узбекского языков преобладание фразеологизмов, связанных с названиями животных, показало, что это абсолютно верно. Обилие таких словосочетаний, их образные описания, антропоцентрический характер их деятельности определяют интерес лингвистов и лексикографов к этой части фразеологического фонда. Во фразеологии обоих языков много изображений разных животных, насекомых и птиц. В процессе анализа можно сделать вывод, что изучение зооморфных образных фразеологизмов в немецком и узбекском языках показывает, что они являются микросистемами в рамках общей фразеологической системы обоих языков. Сопоставительный анализ названий немецких и узбекских фразеологизмов позволил выявить сходства и различия в описательно-ориентированных описаниях.

## Abstract

This article analyzes the description of phraseologies related to the names of creatures in German and Uzbek. Consideration of phraseological units of animal names in the lingvoculturological context allows to analyze the features of their functioning. In the process of studying the expressions of the German and Uzbek languages, the prevalence of phraseological units associated with the names of animals has shown that it is absolutely true. The abundance of such phrases, their figurative descriptions, and the anthropocentric nature of their activities determine the interest of linguists and lexicographers in this part of the phraseological fund. In the phraseology of both languages, there are many images of different animals, insects and birds. In the process of analysis, it can be concluded that the study of zoomorphic figurative phraseological units in German and Uzbek languages shows that they are microsystems within the general phraseological system of both languages. The contrasting analysis of the names of German and Uzbek phraseological units made it possible to identify similarities and differences in descriptive-based descriptions.

**Kalit so'zlar:** frazeologizmlar, jonzotlar nomi, zoomorf tasvirlar, nemis va o'zbek tili, tahlil, obrazlilik, hayvonlarning tasvirlari, obrazli frazeologizm.

**Ключевые слова:** фразеологизмы, названия животных, зооморфные образы, немецкий и узбекский языки, анализ, образность, образы животных, образный фразеологизм.

**Keywords:** phraseology, names of animals, zoomorphic images, German and Uzbek, analysis, imagery, images of animals, figurative phraseology.

## KIRISH

Hayotimiz davomida o'rgangan bilimlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, muayyan tilni mukammal o'rganishda undagi frazeologik birliklarni yaxshi bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tildagi frazeologik birliklar har bir halqning o'ziga xos urf-odatlarini, psixologiyasi, turmush tarzi, mentaliteti kabilar bilan chambarchas bog'liq. "Tilning frazeologik fondi halqning madaniyati va

mentaliteti haqidagi eng qimmatli manbadir, unda halqning afsonalari, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari, odob-axloqi va hokazolari mujassamlashgan”, deb yozadi V.A.Maslova [1]. Uzoq muddatli taraqqiyot mahsuli hisoblangan frazeologizmlar jamiyat tajribasini aks ettirib, uni bir avloddan ikkinchisiga yetkazadi. Shu boisdan ular nafaqat kommunikasiya vositasi sifatida, balki turli-tuman ijtimoiy jihatdan ahamiyatli ma'lumotlar manbai sifatida ham muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan olganda, tilning milliy madaniy sferifikatsiya -bu tarixiy rivojlanish natijasi bo'lib, u madaniy o'tmishni ham o'z ichiga oladiki, halq tarixi qanchalik boy bo'lsa, uning tiliga xos birliklar shunchalik yorqin va mazmunan ko'p qirrali bo'laveradi. Turli tillar frazeologiyasini qiyosiy jihatdan o'rganish esa har ikkala tilning ham tuzilishini chuqur anglab yetish, bu til sohiblari bo'lgan insonlarning fe'li, madaniyati, adabiyoti, tarixi, urf-odatlari to'g'risidagi bilimlarning boyishiga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Butun dunyo tilshunos olimlarining bu muammolarga oid qarashlariga e'tibor qaratilsa, hozirgi kunga qadar ular frazeologiya sohasiga tor va keng ma'noda munosabat bildirayotganlarini guvohi bo'lishimiz mumkin. Frazeologiyani keng doirada tushungan olimlar uning tarkibida maqol-matallar, iboralar, aforizmlar va boshqa turdagi turg'un birliklarni kiritadilar [2]. Tor ma'nodagi frazeologiya tarafdorlari esa yaxlit ko'chma ma'noli turg'un birliklarni o'rganish bilan chegaralanadilar. Frazeologik tadqiqotlari jarayonida ular faqat birikmaga teng bo'lgan frazeologizmlarni tadqiq etib, maqol va matallarni frazeologiya ob'ekti sifatida baholamaydilar [3]. Frazeologiyani ob'ektini tor doirada tahlil etuvchi olimlar o'z asarlarida frazeologizmlarni o'z tabiati bilan so'z birikmasidir, degan dalilni keltiradilar va o'z navbatida maqol, matal va aforizmlarni frazeologizmlardan alohida o'rganadilar.

Umumiy fikrlardan kelib chiqib, frazeologizmlarning asosiy xususiyatlari sifatida qo'yidagilarni ko'rsatish mumkin. Frazeologik birliklar tarkibida kamida ikkita so'z qatnashish kerak. Ulardagi bir nechta mustaqil so'zlar bir gap bo'lagi yoki gap vazifasini bajarishi mumkin. Frazeologik birliklarda komponentlar butunligicha barqaror bo'ladi, shuningdek frazeologizmlar o'zlarining ta'sirchanligi, buyoqdorligi bilan tinglovchiga ta'sir qiladi.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, halq og'zaki ijodida frazeologik birliklardan ayrim holatlarni, voqealarni ta'sirchan va jozibali ifodalash maqsadida foydalaniladi. Ayniqsa, fauna komponentli frazeologik birliklar halq orasida keng qo'llaniladi. Zoonomlar o'zlarining obrazlilik, emotsionalligiga ega. Nemis va o'zbek tillarining iboralarini o'rganish jarayonida hayvonlar nomi bilan bog'liq frazeologik birliklarning keng tarqalganligi mutlaq haqiqat ekanligini ko'rsatdi. Bunday ibora birikmalarining ko'pligi, ularning obrazli tavsifi va faoliyat ko'rsatishning antropotsentrik xususiyati tilshunoslar va leksikograflarning frazeologik fondining ushbu qismga qiziqishini belgilaydi. Ikkala tilning frazeologiyasida turli hayvonlarning tasvirlari, hasharotlar va qushlar bilan bog'liq holatlar ko'p kuzatiladi. Nemis tili leksikasida it (der Hund) zoomorfli frazeologizmlar keng tarqalgan. Bu haqiqatni nemislarning itlarga bo'lgan muhabbati yuqori ekanligida ham ko'rishimiz mumkin. Nemis halqi uchun it, eng avvalo sodiq, vafodor hamrohdur. Qadim zamonlardan to hozirgi kungacha nemis halqi vakillari itni doimiy hamrohlari sifatida qabul qiladi.

Shu bilan birga nemis tili madaniyatida itning tasviri noaniq bo'lib, asosan salbiy xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Buni qo'yidagi salbiy ma'noga ega frazeologik birliklar tasdiqlaydi: kein bunter Hund schaut dich an (ugs.) – sen hech kimga kerak emassan, auf den Hund bringen (ugs.) it - qashshoqlikka olib keladi, auf den Hund kommen (ugs.)- qashshoq bo'lmoq, itdek xor bo'lmoq; [ganz] auf dem Hund sein (ugs.)- o'ta muhtoj bo'lmoq, qashshoqlashmoq.

Shuni ta'kidlash kerakki, insonning hayvonot dunyosi haqidagi g'oyalari ko'pincha ob'ektivlik darajasiga ega emas. Shaxs hayvonlarga o'zining sub'ektiv nuqtai-nazaridan ular uchun mos bo'lgan ma'lum, insoniy belgilarni tasvirlaydi. Ular aslida hayvonlarga umuman xos bo'lmaydi yoki bu odat u hayvonda umuman kuzatilmaydi. Demak, “der Hund” zoomorfizmlil frazeologik birliklar odamning dangasalik, ishonchsizlik kabi sifatlarini aks ettiradi. Bu hayvonda esa bunday odatlar kam kuzatiladi: den Hund hinken lassen (ugs.)- vafosiz, ishonchsiz, dangasa ayyor [4].

O'zbek halqi uchun it -bu inson tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan uy hayvoni, qadimdan odamlarning birinchi do'sti, ovdagi yordamchisi, qo'riqchi, yo'lboshchisi sifatida tasavvur qilinadi. Shuning uchun ko'plab o'zbek frazeologik birliklarida itning sodiqligi va fidoiyligi ta'kidlanadi. Sodiqlik iting bo'lsa, qorovul tinch uxlaydi. Shu bilan birga, o'zbek halqida boshqalarga nisbatan

## TILSHUNOSLIK

g'azablangan va tajovuzkor bo'lgan odamni tavsiflash uchun ham itning tasviriga murojaat qilishlari mumkin. Masalan: it kabi g'azablangan yoki itdek quturgan, zanjirdagi itdek quturgan. Lekin nemis frazeologiyasida ham ma'lum bir hayvonning tajovuzkorligidan dalolat beruvchi turg'un iboralar kuzatiladi. Masalan, vor die Hunde werfen (ugs.) insonni tahqirlash uchun – itdek xo'rlanmoq, Stumme Hunde beißen gern – quturgan it-bildirmasdan tishlaydi. Nemis va o'zbek madaniyatida ish bilan band bo'lgan, yelkasiga ko'p mas'uliyat, bo'lgan odamni ramziy tasdiqlaydi. wie ein Hund gehetzt sein (ugs.) – o'zini haydalgan it kabi his qilmoq, inson emas, it bo'lmoq.

Bu hayvonning xulq-atvori va odatlarini kuzatish asosida qo'yidagi frazeologik birlik mutlaqo boshqacha xarakterdagi insonlarning tinch yashashi mumkin emasligini ta'kidlaydi; leben wie Hund und Katze (ugs.) – it-mushuk bo'lib yashamoq.

Frazeologik birliklarning ko'p sonli guruhlaridan biri to'ng'iz (has Schwein) tasviriga asoslangan iboralar to'plamidir. To'ng'iz chorvachiligi Germaniyada chorvachilikning eng qadimiy turi hisoblanadi. Qadim zamonlardan beri cho'chqalar podalari Elba daryosining g'arbiy qismidagi o'rmonlarda boqilgan. Ular uchun asosiy oziq-ovqat eman daraxti va archa yong'og'i bo'lgan. Bundan tashqari, to'ng'izchilik Germaniyada chorvachilikning eng arzon turi bo'lib, XVIII-asrgacha yetakchi o'rinni egallagan. Bu esa qadimda Germaniyada yovvoyi chuchqalar ko'p yashaganligi va yevropa to'ng'izlarining mahalliy zotlari ajdodi bo'lganligi bilan bog'liqdir. Shunday qilib, cho'chqa hayvoni Germaniya dehqon xo'jaligi va chorvachiligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu uy hayvonining keng tarqalganligi va uning aholi hayotidagi o'rni mamlakatning urf-odatlarini va tilida o'z aksini topgan. Qo'yida keltirilgan frazeologik birliklar, turnirlar, otishmachilik musobaqalari an'analariga borib tavaladi. Bunda sovrinlardan biri to'ng'iz bo'lib, eng yomon otuvchilardan biriga berilgan. Ular odatda bunday g'alabadan uyalib, boshqalarning ko'zidan yashirib, uylariga olib ketishga harakat qilishgan. Vaqt o'tishi bilan odatni belgilovchi frazeologik birliklar o'zining asl ma'nosini yo'qotdi, natijada cho'chqa odamlarning farovonlik va boylik timsoliga aylandi: er hat Schwein (ugs.) - chuchqadek omadli, er hat (großes) Schwein gehabt (ugs.)- u juda omadli edi, das nenne ich Schwein (ugs.) – bu odam! Xush omad, Shunday baxt keldi!

Shunga qaramay, nemis tilida salbiy ma'noga ega bo'lgan "to'ng'iz" komponentli ko'plab frazeologik birliklar mavjud: armes Schwein (salopp) – badbaxt to'ng'izdek kambag'al; bluten wie ein Schwein (derb) - qon ketmoq; schwitzen wie ein Schwein (derb) – ko'p terlamoq va hokozo. Nemis va o'zbek tillarida frazeologik birliklarni tahlil qilish jarayonida o'zbeklar ham nemis halqi ham xarakterlash uchun to'ng'iz tasviriga murojaat qiladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi:

- Jismoniy va axloqiy jihatdan vijdonsiz odam, masalan: wie das Schwein aus dem Stall fortlaufen (ugs.) – butunlay tartibsizlikda qoldirib ketish - botqoqqa botib qoldi, das Schwein fühlt sich im Dreck am wohlsten- sassiqxonada ham o'zini xurliqo sezadi.
- odob normalari va xulq-atvor qoidalarini buzuvchi, nodon va qo'pol odam, masalan: schreien wie ein gestochenes Schwein (derb)-baland ovozdada baqirmoq, to'ng'izdek chirillamoq.
- juda mast odam: voll wie ein Schwein (derb)-to'ng'izdek mast, besoffen wie ein Schwein (derb)-bug'zidan kelguncha ichgan (qo'pol, nafrat).

Nemislar, shuningdek, bu hayvonning xavf-xatarni his qilib, juda tez qochib ketishini payqashdi va bu qobiliyatni qo'yidagi frazeologik birliklar ta'kidlanadi: im Schweingalopp – shoshqaloq. Boshqa tomondan, o'zbeklar bu hayvonning yana bir xususiyatiga, ya'ni haddan tashqari semizligiga e'tibor qaratadilar: to'ng'iz kabi yog' to'plamoq, ya'ni o'ta semirmoq.

Nemis va o'zbek frazeologik birliklarida (der Bär) - ayiq obrazi ikkala tilda ham umumiy jihatlarga ega. Yovvoyi hayvon – ayiq haqida tavsif berilganda yirik, qo'pol sifatlari beriladi. Bu hayvon o'zbeklar orasida katta, jismoniy kuch, beparvolik va muloyimlik g'oyasi bilan bog'liq bo'lib, o'zini himoya qilish qobiliyati bilan birlashtirilgan. G'azablangan ayiq, barcha to'siqlarni supurib tashlashga, har qanday raqibni yengishga qodir. Nemislar ayiqning kuchini ham qayd etishgan: ein Bär von einem Menschen (ugs.) –haqiqiy ayiq (so'zlashuv nutqida-odam haqida); er ist stark wie ein Bär - u ayiqdek baquvvat, kuchli; er ist ein rechter Bär – u haqiqiy ayiq (so'zlashuv nutqida).

O'zbeklar singari nemislar ham o'zini qanday tutishni bilmaydigan, qo'pol insonni tasvirlash uchun ayiq timsoliga murojaat qilishadi: ein ungeleckter Bär ≈ u ayiqdek qo'pol; er ist plump wie ein Bär (ugs.) ≈ u ayiqdek besunaqay. Ikki halq orasida inson salomatligi bilan bog'liq holatlarda "der

Bär" –ayiq komponentiga murojaat qilishadi: er ist gesund wie ein Bär ≈ u ayiq kabi sog'lom, hungrig wie ein Bär / Bärenhunger haben –bo'ridek och bo'lmoq.

Ma'lumki, ayiq butun qishni o'z uyida o'tkazadi va panjasini so'radi. Shu munosabat bilan o'zbek va nemis frazeologiyasida ayiq dangasalik g'oyasi bilan bog'liq: auf der Bärenhaut liegen (ugs. abw.) –ayiq terisi yopib olgan.

O'zbek halqi madaniyatida ayiq dangasa hayvon sifatida ham namoyon bo'ladi, ammo uning bu xususiyati bu tilning frazeologik birliklarida deyarli aks etmaydi. Nemislar ayiqning tovushli uyqusini ta'kidlaydilar: er schläft wie ein Bär ≈ u ayiqdek uxlaydi; wie ein Bär schnarchen – xuddi ayiqdek xurрак otmoq. Nemis frazeologiyasida ayiq ko'plab insoniy fazilatlarini aks ettiruvchi obrazlardan biri ekanligini ko'rish mumkin: wie ein Bär schwitzen ≈ xuddi ayiqdek terlamoq; Zwei Bären vertragen sich nicht in einer Höhle – ikki ayiq bir g'orda kelisha olmaydi; Bär bleibt Bär, fährt man ihn auch übers Meer – bo'rini qancha boqsang ham o'rmonga qarab talpinar.

Hayvon nomi bilan bog'liq frazeologik birliklar orasida baliq "Der Fisch" va cho'rtanbaliq "der Hecht" leksemalari frazeologiyadagi shaxsni aql-idrok, uning hissiy holati va xarakterini ifodalash uchun ishlatiladi, masalan gesund wie ein Fisch im Wasser ≈ o'zini xuddi suvda yurgandek his qilmoq; kalt wie ein Fisch (ugs.) – baliq kabi sovuq (hissiz); weder Fisch noch Fleisch sein (ugs.) – u yoqli ham emas, buyoqli ham emas; na don na somon (betayin inson- so'zlashuv tilida); der Hecht im Karpfenteich (ugs.) ≈ ilhom beruvchi, ruhlantiruvchi, motivatsiya beruvchi inson; ein toller Hecht (ugs.)- quvnoq odam [5].

E'tiborga loyiq jihati shundaki, nemis madaniyati uchun baliq (der Fisch) birinchi navbatda nafaqat sovuqqonlik, befarqlik, balki quvnoqlik timsoli, cho'rtanbaliq (der Hecht) esa energiya ramzi.

Nemis frazeologik birliklarida sudralib yuruvchilarning tasvirlari ko'p emas. Ko'p holatlarda ilon (die Schlange) va timsoh (das Krokodil) leksemalari bilan bog'liq frazeologik birikmalarni ko'rish mumkin. Nemislar ham o'zbeklar ham makkor shaxslarni tasvirlashda ilon obraziga murojaat qilishadi: falsch [listig] wie eine Schlange – ilondek makkor; eine Schlange am Busen nähren (geh.) ≈ (birovning) ko'krigidagi iloni ili; sich winden [sich krümmen] wie eine Schlange – ilondek burilishi qilmoq. Nemislar ilonning donoligini ta'kidlaydilar: klug wie eine Schlange.

#### XULOSA

Tahlil jarayonida shu xulosaga kelish mumkinki, nemis va o'zbek tillarida zoomorf obrazli frazeologik birliklarni o'rganish ularning har ikki til umumiy frazeologik tizimi doirasida mikrotizim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Zoomorf obrazli frazeologizmlar shaxsni ratsional va ijtimoiy mavjudot sifatida tavsiflaydi. Ularda insoniy fazilatlar, hissiy, irodaviy va intellektual harakatlar va holatlar, jamiyatdagi xatti-harakatlar normalari bilan aniq aks ettirilgan.

Kuzatishlarimizga ko'ra, nemis frazeologiyasida turli xil hayvonlar, hasharotlar, qushlarning tasvirlari qo'llanilish aniqlandi. Shu bilan birga, baliq va sudralib yuruvchilar nomi bilan ifodalangan frazeoloik birliklar ham kam emas. Nemis va o'zbek frazeologik birliklarining nomlari bilan qarama-qarshi tahlili ibora birikmalari asosidagi tasvirlardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga imkon berdi. Har ikkala til madaniyatidagi asosiy belgilarda alohida hayvonlarning tasvirlari mos keladi, ayniqsa it (der Hund), quyon (das Kaninchen, das Karnickel), xo'roz (der Hahn), qo'y (das Schaf) kabi flonomiklarning tasvirlarida bunday holatlar ko'p kuzatiladi.

Shu bilan birga ko'p sonli nemis frazeologik birliklari uchun asos bo'lgan zoomorfik tasvirlar unumli emas yoki o'zbek frazeologiyasi uchun umuman xos emas, masalan, silovsin (der Luchs), hamster (der Hamster), bo'rsiq (der Dachs) yoki qurbaqa (die Krote) kabi hayvonlarning tasvirlari bilan bog'liq frazeologik birliklar deyarli kuzatilmaydi. Ayrim hayvonlarning obrazlarini ham ta'kidlash lozimki, ularning ayrim sifatlari har ikki tilning idiomalarida o'z aksini topsa, bu hayvonlarning boshqa belgilari faqat bitta til madaniyatida aks etadi. Shunday qilib, o'zbek tili uchun ham nemis tili uchun ham lingvistik ong uchun quyon (der Hase) qurqoqlik ramzi, ikkala tilda ham to'ng'iz nopoklikning ramzi bo'lib, nemis halqi madaniyatida baxt va omad ramzida ham qo'llanilgan.

Aniqlangan farqlar frazeologik birliklarning milliy o'ziga xosligini ko'rsatadi, shuningdek, hayvonlarning ko'p sonini va turli xilma-xilligini ifodalashidan nemislarning tarixi, fe'l-atvori va mentalitetining milliy xususiyatlari, uy, yovvoyiy va ov hayvonlaridan foydalanish, geografik xususiyatlar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar nemis tilini

## TILSHUNOSLIK

chet tili sifatida o'rgunuvchi talabalar zoomorf frazeologik birliklarning ma'nolarini yaxshiroq tushunishga va tarjima xatolaridan qochishga imkon beradi, bu esa frazeologik birliklarni so'zlashuv nutqida va adabiy matnda ishonchli ishlatishga yordam beradi.

Nemis va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini ularning tarjimasi orqali ham ko'rish mumkin. Masalan, nemis tilidagi hungrig wie ein Bär / Bärenhunger haben –bo'ridek och bo'lmoq iborasini o'zbek tiliga so'zma-so'z ayiqdek och qolmoq deb tarjima qilinadi, lekin bu ibora bo'ridek och bo'lmoq deb tarjima qilinsa to'g'ri bo'ladi va u ekvivalentli tarjima deb ataladi. Bu frazeologik birliklar tarjimasini tahlil qilinganda, ularning struktura va stilistik jihatdan bir-biriga to'g'ri kelmasligini ko'rish mumkin.

Frazeologik birliklar matbuotda, kundalik suhbat, rasmiy doirada ham keng qo'llaniladi. Ular nutqimizga yorqinlik baxsh etadi, uning jozibali bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda xorijiy tilni o'rgatish maqsadi o'zaro madaniy aloqalar jarayonida turli nutq faoliyatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan bilim qanday egallanishi bilan belgilanadi. Fikrimizcha, mazkur maqsadga erishishning eng samarali usullaridan biri milliy mentalitetni aniq ifodalaydigan muhim til qatlami, shu jumladan, frazeologik birliklarni o'quv materiallariga ko'proq singdirishdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. –М.: Academia, 2004. -204 с. (Maslova V.A. Linguoculturology. 2nd edition. –M.: Academia, 2004. -204 p.)
2. Кунин А.В. Английская фразеология. –М.: Изд. Высшая школа, 1970. (Kunin A.V. English phraseology. –M.: Ed. Higher school, 1970.)
3. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. –Изд. Ленинградского университета. –Л., 1961. -207 с. (Amosova N.N. Basic frazeology of English. –Izd. Leningradskogo universiteta. –L., 1961.-207p.)
4. Мокиенко, В. М. Словарь сравнений русского языка / В. М. Мокиенко. – СПб, 2003; Русское культурное пространство: Лингвокультурологический словарь / под ред. Захаренко И. В. и др. – М., 2004. (Mokienko, V. M. Dictionary of Russian Language Comparisons / V. M. Mokienko. – SPb, 2003; Russian cultural space: Linguoculturological dictionary / ed. Zakharenko I. V. ect. – M., 2004.)
5. Мокиенко, В. М. В глубь поговорки: Рассказы о происхождении крылатых слов и образных выражений / В. М. Мокиенко. – СПб., 1999; (In the depth of the proverbs : Stories about the origin of winged words and figurative expressions / V. M. Mokienko. – SPb., 1999)
6. Krämer, W. Lexikon der populären Sprachirrtümer / W. Krämer, W. Sauer. – München, 2006.( Kremer, W. Lexicon of Popular Linguistic Errors / W. Kremer, W. Sauer. – Munich, 2006.)
7. Eliot T. Poems [Int. resource] / T. Eliot. – Режим доступа: <http://www.gutenberg.org/files/34212/15bpt1.txt>. – 1998. – 25 p. (Eliot T. Poems [Int. resource] / T. Eliot. – Access under: <http://www.gutenberg.org/files/34212/15bpt1.txt>. –1998. –25p.)
8. Fleischer W. (1982): Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig: VEB Bibliographisches Institut. (Fleischer W. (1982): Phraseology of contemporary German language Leipzig: VEB Bibliographisches Institut. Phraseology of contemporary German language)
9. Raab H. Deutsche Redewendungen: Von Abblitzen bis Zügel schießen lassen /N. Raab. – Wiesbaden, 1995. ( Raab H. German idioms: From flashing to shooting reins /N. Raab. – Wiesbaden, 1995.)
10. Umarxo'jaev M.I., Nazarov K.I. Deutsch-russisch-usbekisches phraseologisches Wörterbuch, - Toshkent, O'qituvchi, 1994. (Umarxojaev M.I., Nazarov K.I. German-Russian-Uzbek phraseological dictionary, - Toshkent, Oqituvchi 1994.)

(Taqrizchi: Sh.Iskandarova - filologiya fanlari doktori, professor)